

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ABDUSALOMOVA NIGORA SHUHRATOVNA

“ZEVARXON” DOSTONINING GENEZISI VA BADIY TALQINI

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Abdusalomova Nigora Shuhratovna

“Zevarxon” dostonining genezisi va badiiy talqini 3

Abdusalomova Nigora Shuhratovna

The genesis and artistic interpretation of the epic “Zevarxon” 25

Абдусаломова Нигора Шухратовна

Генезис и художественная интерпретация дастана “Зевархон” 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ABDUSALOMOVA NIGORA SHUHRATOVNA

“ZEVARXON” DOSTONINING GENEZISI VA BADIY TALQINI

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2670 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tai.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomnazarova Shahodatxon Xabitovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umirzoq Abdurazzoqovich
filologiya fanlari doktori, professor

Sariyev San'at Matchonboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent amaliy fanlar universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" dekabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (105 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "15" dekabr dagi 5 - raqamli reyestr bayonnomasi).




J.S. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor


M.Y. Jo'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d.


Sh.G. Turdimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kun jahon folklorshunosligida xalq eposining shakllanishi, manbalari, tadrijiy rivoji va uning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilashga doir bir qator yangi tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Natijada, xalq dostonchiligi an‘analari, jumladan, eposlar tarkibida saqlanib qolgan mifologik qatlamni aniqlash va ularni tarixiy, madaniy va poetik taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga oid ilmiy konsepsiya yanada takomillashtirildi. Voqelikni badiiy-estetik idrok etishning tarixiy ildizlarini oydinlashtirishga imkon beradigan ko‘plab yangi manbalarning ommalashtirilishi va jahonning turli xalqlari etnomadaniyatiga mansub mifologik tizimlarning o‘rganilishi natijasida arxaik epos syujetlari qadimgi miflar, shomonlik bilan bog‘liq ritual elementlari va xalqona axloqiy-estetik qarashlar sintezi negizida yuzaga kelganligini ko‘rsatdi.

Dunyo folklorshunosligida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan yangi ilmiy-nazariy qarashlar turli xalqlar eposlarining o‘zaro aloqadorligi va tadrijiy takomili jarayonlarini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqishga turtki bermoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek eposshunosligi uchun ham epik merosni yangi uslubda tizimli o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Epik syujet va motivlarning tipologiyasini tadqiq etish borasidagi zamonaviy izlanishlar natijasida epik syujet va obrazlar faqat mahalliy hududlarda shakllanmagan, balki ular turli omillar ta‘sirida, xususan, o‘zaro iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-adabiy aloqalarning kengayishi bilan izohlanadi. Asrlar davomida o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib kelgan folklor namunalarning syujet qurilishi, badiiyati, umuman, epik ijodiyotdagi mushtarakliklarning yuzaga kelganligi biz obyekt sifatida tanlab olgan namunalarda o‘z aksini topadi. Binobarin, epik syujet va motivlar tipologiyasini tadqiq etishga oid so‘nggi tadqiqotlar jahon xalqlari eposining rivojida an‘anaviy syujetlar migratsiyasi muhim rol o‘ynaganligi, ayniqsa, Markaziy Osiyoda shakllangan va g‘oyat kuchli badiiy tizim sifatida taraqqiy etgan turkiy, fors, arab va hind epik an‘anasining ta‘siri kuchli bo‘lganligini isbotlash imkonini beradi.

O‘zbek folklorshunosligida ham mintaqa xalqlari og‘zaki ijodining tarixiy ildizlari, tadrijiy taraqqiyoti, tipologiyasi va o‘zaro aloqalari natijasida yuzaga kelgan nomoddiy madaniy merosni ilmiy tadqiq qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi – folklor san‘atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an‘analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi”¹. Jumladan, xalq eposining kam tadqiq qilingan namunalaridan biri, “Zevarxon” dostoni, o‘zining arxaik qatlamlari, xalqning benazir tafakkuri, boy qadriyatlari, nodir ma‘naviy merosini o‘zida mujassam etgani bilan ayni paytda dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил, 7 апрель. – № 68 (6251)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 7-fevraldagi 59-son “Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek folklorshunosligida baxshilar ijodi, xalq eposlarining manbalarini aniqlash, badiiyatini o‘rganishga doir qator tadqiqotlar yuzaga keldi². Biz tadqiq etayotgan “Zevarxon” dostoni ham ushbu tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lsa-da, folklorshunoslikda to‘laqonli, yaxlit shaklda hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Aksariyat tadqiqotlar doston haqida qisqacha ma‘lumot va mulohazalarnigina qamraydi. Jumladan, V.M. Jirmunskiy va

² Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – 518 б; Зарифов Х.Т. Улкан халқ санъаткорлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 79-88; Shu muallif. Фозил шоир – машхур дostonчи // Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 4-15; Саидов М. Ўзбек халқ дostonларида бadiий махорат масаласи. – Тошкент: Фан, 1969. – 264 б; Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008. – 409 б; Shu muallif. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент, 1979. – 152 б; Мирзаев,Т., Саидов М. Ўзбек эпосида вариация масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. – 4-сон. – Б. 59-60; Рўзимбоев С. Хоразм дostonчилиги эпик анъаналари. – Урганч: Университет, 2008. – 188 б; Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – 192 б; Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 506 б; Турдимов Ш. “Гўрўгли” дostonларининг генезиси ва тадрижий боскичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б; Shu muallif. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.– 96 б; Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талкин. – Қарши: Насаф, 1999. – 169 б; Shu muallif. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – 121 б; Shu muallif. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бadiий талқини: филол. фан докт. ... дисс. Автореф. – Тошкент, 2010. – 47 б; Shu muallif. Миф ва бadiий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 318 б; Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-киёсий таҳлили. Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 1997. – 50 б; Мирзаева С. Ўзбек халқ романик дostonлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 289 б; Ачилов Н. Бахшичилик санъати ва эпик репертуар. – Тошкент: Фан, 2020. – 237 б; Ёрматов И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси бadiияти. Филол. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2014. – 260 б; Собирова Н. Хоразм “ошиқ” туркуми дostonлари сюжети, етакчи мотивлари ва образлар тизимининг мифологик асослари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 143 б; Эгамбердиева Г. Эртақ тип сюжетли Хоразм дostonлари поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 158 б; Магкулиева М. “Шахриёр” эпик сюжетининг илк манбалари, унинг дoston ва эртақ вариантлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020. – 166 б; Назарова Ш. Ўзбек халқ эртақларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 150 б; Аҳмедова З. “Минг бир кеча” ва ўзбек халқ эртақларининг сюжет тизимидаги киёсий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 152 б; Эшчонова Г. “Ошиқ Ғариб ва Шохсанам” дostonи вариантлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 148 б.

H. Zarifov hammuallifligidagi “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”³ nomli fundamental monografiyada “Zevarxon” dostonining syujet qurilishi, ba’zi motiv va obrazlar tizimi haqida dastlabki ilmiy mulohazalar bildirilgan. Ushbu monografiyada doston xalq og‘zaki epik an‘anasi va yozma adabiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri mahsuli sifatida talqin etilib, “Zevarxon” dostoni syujeti xalq ertaklari elementlari (masalan, Semurg‘ qushi, pesiglavlar va b.) bilan uyg‘unlashgani qayd etiladi. Dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, syujet va obrazlar tizimi bilan bog‘liq tadqiqotlarning aksariyati esa doston nashrlari uchun yozilgan so‘zboshilar bilan bog‘liqdir. Jumladan, folklorshunos M. Murodov “Zevarxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasi ilk nashriga yozgan so‘zboshi⁴ sida dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga to‘xtalgan. Xususan, dostonni xalqning axloqiy-estetik qarashlarini mujassam etgan epik meros sifatida baholagan. Dostonning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari” yuz jildligining “Bahrom va Gulandom” jildidagi uchinchi nashri so‘zboshisi⁵ esa mazkur dostonning har ikki versiyasi tadqiq qilingani bilan ahamiyatlidir. Unda dostonning har ikkala versiyasi shakllanishi, manbalariga doir ma’lumotlar beriladi. Biroq bu ishlarda doston faqat umumiy tavsif va qiyosiy yondashuv darajasida o‘rganilib, yaxlit monografik tadqiq qilinmagan.

“Zevarxon” dostonining tizimli tadqiqiga oid asosiy ish R. Rajabov⁶ tomonidan bajarilgan. Olim “Zevarxon” dostonining genezisi, tarqalishi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida doston syujetining shakllanish manbalari, kompozitsion tuzilmasi haqidagi mulohazalarini bayon qilgan. Hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li ijrosidagi versiyalar syujetini “Kitobi Sanobar” bilan qiyosiy tahlil qilgan. Olim dostonni shahzoda Sanobarning sarguzashtlariga asoslanuvchi xalq kitobining og‘zaki versiyasi sifatida ko‘rsatadi. Biz manbalar tahlili asosida “Zevarxon” dostoni xalq baxshilari ijodida shakllangan mustaqil epos namunasi ekanligini asoslab berdik. O‘zFA Folklor arxivida 1445-inventar raqami ostida saqlanayotgan Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuariga oid “Zevarxon” dostoni qo‘lyozmasi⁷ so‘nggidagi baxshi izohi ham muhim tadqiqotlardan biri sanaladi. Bu izoh dostonning folklor muhitidagi tarqalishi, ijrochilik, ustoz-shogirdlik an‘anasi va “Sanobar” kitobi bilan aloqasini yorituvchi manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

“Zevarxon” dostoniga oid tadqiqotlar ko‘lami keng bo‘lmasa-da, dostonning Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasi bilan syujetda yaqinlikka ega bo‘lgan “Gul va Sanobar” dostoniga doir tadqiqotlar ancha salmoqli. Mazkur doston syujeti Markaziy Osiyo, Eron va Turkmaniston xalqlari orasida keng tarqalgan. Jumladan, ushbu syujet asosida Toshkentda chop etilgan xalq kitoblaridan birining nasriy bayonini professor V.A. Abdullayev⁸ “Sanobar” nomi bilan nashr qilgan bo‘lsa,

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – Б. 292-293.

⁴ Мurodov M. Достон хакида / Зевархон. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 3-6.

⁵ Нарзикулова М. Қўш манбадан сув ичган достонлар / Баҳром ва Гуландом. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлиги, 37- жилд. – Тошкент, 2024. – Б. 11-13.

⁶ Раджабов Р. “Зевархон” дostonининг genezиси, тарқалиши ва гoявий-бадий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973. – 205 б.

⁷ ZO‘FA, Inv.№1445.

⁸ Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1967. – Б. 127.

rus olimi N.P. Ostroumov⁹ esa “Shahzoda Sanobarning sarguzashtlari” nomi bilan rus tilidagi tarjima matnini e’lon qilgan. Mazkur syujetning Shaydoyiga nisbat beriluvchi turkman versiyasiga oid tadqiqotlar ham salmoqli bo’lib, ushbu versiya birinchi bor B.A. Qoriyev¹⁰ tomonidan kichik so’zboshi bilan e’lon qilingan. Keyinchalik A.Meredov “Шейдайы”¹¹ nomli monografiyasida dostonni tanqidiy matni bilan nashr qiladi. Shuningdek, D.Oqdirov¹²ning “Shaydoyining “Gul va Sanobar” dostoni hamda uning sovet sharqi adabiy syujetlari bilan aloqasi” nomli dissertatsiyasida dostonning xalq ertaklari bilan qiyosiy tahlili, H.Zarifov va V.M.Jirmunskiylarning “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”¹³ monografiyasida “Sanobar” dostonining o‘zbek xalq baxshilari repertuaridagi mavjudlik shakli, doston genezisi va motivlari tahliliga doir mulohazalar, olima M.Jo‘rayevaning “Gul va Sanobar haqida ba’zi mulohazalar”¹⁴ nomli maqolasida esa dostonning o‘zbek va turkman versiyalari genetik aloqadorligiga oid mulohazalar, N.Erenning “Turkman “Gul – Senuber” dostoni”¹⁵ nomli magistrlik ishida turk tilida qilingan tarjimasida asosida motiv va obrazlar qiyosiy tahlili, N.Ko’sening “Turkmanistondan Gul Senuber hikoyasi”¹⁶ nomli maqolasida dostonning mifologik qatlamlari, xususan, Semurg‘ obrazi tahlili, V.Rayyoniy va K.Orxiylarning “Gul va Sanobar: Shaydoyi va fors adabiyoti”¹⁷ nomli maqolasida esa doston syujetida fors xalq rivoyatlari, motiv va epizodlari ta’siri tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarga qaramay, “Sanobar” xalq kitobi, “Gul va Sanobar” bilan “Zevarxon” dostoni versiyalarining qiyosiy tahlili; versiyalarning poetik-kompozitsion jihatdan o‘ziga xosligi; “Gul va Sanobar”ning versiyalari genezisi masalalari hali maxsus monografiyada yoritilmagan. Mazkur dissertatsiya aynan shu bo’shliqni to’ldirishga, “Zevarxon” va unga yaqin “Gul va Sanobar” syujetlarining genezisini tizimli tahlil qilishga, ularning o‘zbek eposidagi va madaniyatlararo o‘rnini aniqlashga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining “O‘zbek folklorshunosligining dolzarb muammolari” mavzusida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o‘rganish masalalari” mavzusidagi fundamental ilmiy akademik nashrning rejasi doirasida bajarilgan.

⁹ Остроумов Н.П. Приключения царевича Санаубара // Сборник в честь семидесятилетия Григория Николаевича Потанина. – СПб.: Тип. Императорской АН, 1909.– С. 309-322.

¹⁰ Gul – Senubar / Шейдайи. Топлап чапа тайярлан ва сөз башы язан: Гаррыев Б.А. – Ашгабад: Бирлешен Түркмендөвлетнешир, 1943.– 79 б.

¹¹ Мередов А. Шейдайы (“Дерневлер ве текстлер”). – Ашгабад, 1964. – 343 б.

¹² Оқдиров Д. Дестан “Гуль и Сенубер”. Шейдаи и его связь с литературными сюжетами советского Востока: Дисс. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1967.

¹³ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – Б. 287-292.

¹⁴ Jo‘rayeva M.Y. Some notes on the epic “Gul and Sanobar” // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in>, 394.

¹⁵ Eren N. Türkmen Gül – Senuber Destanı. Yüksek lisans tezi. – Izmir, 2009. – 265 s.

¹⁶ Köse N. Türkmenistan’dan Gül Senüber Hikâyesi. // Millî Folklor. – 3/21. – Ankara, 1994. – S. 52-56.

¹⁷ Royoniy V., Arxiy K. Gul va Sanobar Shidayi va forsiy manzumalar // Rudaki: Markaziy Osiyo til va adabiyot tadqiqotlari jurnali. – <https://www.rudakijournal.ir>.

Tadqiqotning maqsadi: “Zevarxon” dostonining shakllanish manbalari va genezisini aniqlash, syujetning variant, versiyalari hamda motiv va obrazlar tizimini kompleks tadqiq qilish natijasida dostonning o‘zbek epik an‘anasidagi o‘rnini oydinlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Zevarxon” dostoni va doston syujetining manbalari tadqiqiga oid manbalarni umumlashtirib tadqiq etish;

“Zevarxon” dostoni syujetining shakllanish manbalari va tarixiy asoslarini yoritish hamda mazkur syujetning boshqa epik yozma manbalar bilan aloqasini ko‘rsatib berish;

dostonning Rahmatulla Yusuf o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuarlariga oid versiyalarini qiyosiy tahlil qilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini, kompozitsion tuzilmasini hamda har bir variantning o‘ziga xos poetik uslubini ochib berish;

doston syujetining o‘zbek, turkman, uyg‘ur versiyalarini tahlilga tortib, “Zevarxon” dostonining umumturkiy eposlar tizimidagi o‘rni, versiyalar o‘rtasidagi poetik va lokal o‘zgarishlarni yoritish;

“Zevarxon” dostonining syujet va an‘anaviy motivlar tizimini o‘zbek xalq eposining umumiy mezonlari asosida tahlil qilib, motivlarning epik syujetdagi semantik rolini oydinlashtirish;

dostondagi obrazlar tizimining badiiy-funksional o‘rnini, obrazlarning tadrijiy taraqqiyoti orqali esa xalqning estetik qarashlari, axloqiy qadriyatlari va epik tafakkurdagi yangilanish jarayonlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Zevarxon” dostonining hozirgi kunda ilmiy jamoatchilikka ma‘lum bo‘lgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyalari hamda doston syujetining boshqa versiyalari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini “Zevarxon” dostonining genezisi, versiyalarining badiiy-poetik xususiyatlari, syujet va kompozitsion tuzilmasi, obrazlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mazmuni tavsiflash, qiyosiy-tipologik, strukturak va semantik tahlil usullardan foydalanilgan holda yoritildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Zevarxon” dostonining “Sanobar” xalq kitobi bilan aloqasi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasi ta’siri orqali kechganligi, mushtarak obrazlarga ega bo‘lishiga qaramay ular o‘zaro versiyalar emas, mustaqil dostonlar ekanligi dalillangan;

“Gul Sanuvbarga nima qildi?” fors xalq afsonasining o‘zbek folkloriga o‘tish shakli uning matni, xalqaro tarjimalari bilan qiyosiy tahlili natijasida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?” ertagi shaklida lokallashtirish isbotlangan;

“Zevarxon” dostoni xalq ertaklari motiv, epizodlarining o‘zaro sintezi natijasida shakllangan va o‘zbek, fors, arab, hind epik an‘analaridagi umumiy mifopoetik qatlamga ega ekanligi hamda dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuarlariga oid nusxalari o‘zaro versiyalar sifatida ilk bor izchil asoslangan;

“Zevaxon” dostonining an’anaviy motivlari va obrazlar tizimi tipologiyasi, xususan, doston matnidagi Semurg‘, ro‘dapo, chorbog‘, suv kabi obraz va epik makonlar xalq tasavvuridagi qadimiy marosim va ramzlarni aks ettiruvchi mifologik kodlar ekanligi, ular qahramonning ruhiy kamolotini bosqichma-bosqich ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lgani oydinlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, keltirilgan tahlillarning tavsiflash, qiyosiy-tipologik, struktural va semantik tahlil usullari orqali asoslangani, doston genezisini aniqlash, versiyalar tahlili, doston syujeti, motiv va obrazlar tahlilida ishonchli nazariy manbalardan foydalanilganligi, mavzu yuzasidan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda e‘lon qilingan maqolalarda keltirilgan nazariy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda olingan ilmiy natijalar va xulosalar xalq eposlarini tadqiq qilish, ishqiy-romanik dostonlar poetikasini tahlil qilish bo‘yicha olib borilayotgan zamonaviy folklorshunoslik izlanishlariga nazariy va amaliy jihatdan hissa qo‘shadi. Shuningdek, o‘zbek eposshunosligini yangi fakt va ilmiy qarashlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Xalq og‘zaki ijodi”, “O‘zbek folklori” fanlaridan filologiya, boshlang‘ich ta‘lim fakultetlarida seminar mashg‘ulotlari o‘tkazish, maxsus kurslar o‘tish, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy-metodik tavsiyalarning ilmiy-akademik va ommabop nashrlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, “Zevaxon” dostonini nashrga tayyorlash, xalq dostonlari katalogini yaratish yoki akademik nashrlar uchun izohli matn tuzishda ham mazkur tadqiqot materiali va natijalari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Zevaxon” dostonining genezisi va badiiy talqini mavzusini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Zevaxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyalarining to‘ldirilgan, qayta nashrini tayyorlashda doston syujetining ildizlari, versiyalar qiyosiy tahliliga oid ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan OT-F1-76 “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o‘rganish masalalari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 25-iyuldagi 3/1255-1826-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha doston syujetining genetik ildizlari bilan “Kitobi Sanobar” va “Malikai Husnobod”, “Ozodachehra”, “Tuhmatga uchragan kelin” xalq ertaklari, “Ming bir kecha” tarkibidagi “Sindbod bahriy” va “Sayfulmuluk” qissalari bilan aloqasi, doston syujeti versiyalari tahlili asosidagi yangi ilmiy-nazariy ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

“Qoraqalpoq folklorshunosligi antologiyasi”ni yaratishda doston syujeti, motiv va obrazlar tizimi tahliliga oid ilmiy xulosalardan Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universitetida amalga oshirilgan AL-662204393-raqamli “Qoraqalpog‘iston folklorshunosligi antologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2025-yil 4-fevraldagi 01-21-01/729-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha jarayonida “Zevarxon” dostoni syujetining o‘zbek, turkman, uyg‘ur versiyalari tahlilidan olingan ilmiy-nazariy xulosalardan antologiya tuzishda foydalanilgan; shuningdek, tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston xalq dostonchiligi materiallarini tahlil etishda, romanik dostonlardagi ayol obrazlari tipologiyasini aniqlashda amaliy manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **“Zevarxon” dostoni syujetining o‘rganilishi va tarixiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Dostonning o‘rganilish masalalari”* deb atalgan. Unda mazkur doston va doston syujetlariga oid tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan.

“Zevarxon” dostoni o‘zbek xalq dostonlarining romantik turkumiga mansub bo‘lib, uning syujeti shahzoda Sanobarning ishqiy sarguzashtiga asoslangan xalq kitoblari hamda “Gul va Sanobar” dostoni bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. “Zevarxon” dostonining hozirda ikki versiyasi mavjud bo‘lib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuarlariga oid. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasining syujet-kompozitsion tuzilmasi, obrazlar tizimi hamda manbalari haqidagi dastlabki ilmiy mulohazalar V.M. Jirmunskiy va H.Zarifovlarning *“O‘zbek xalq qahramonlik eposi”*¹⁸ monografiyasiga oid. Unda

¹⁸ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – С. 292-293.

doston og‘zaki epik an‘ana va yozma adabiy ta‘sirlar sintezi mahsuli sifatida talqin etiladi. Mualliflar doston syujetini boshqa aniq manbalar bilan bevosita qiyoslamagan bo‘lsalar-da, asardagi motivlarning xalqaro mifopoetik ildizlari mavjudligiga ishora qilganlar. Shuningdek, eposning yana Po‘lkan shoir repertuarida mavjudligini ham qayd etganlar. Mazkur axborot folklorshunos M.Murodov¹⁹ tomonidan ham tasdiqlangan.

Folklorshunos M.Murodov Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir bilan bir qatorda dostonni Rahmatulla Yusuf o‘g‘li ham ijro etganini ma‘lum qilgan. Biz manbalar bilan tanishish jarayonida Po‘lkan shoirdan yozib olingan doston matnini va uning yozib olinganiga doir biror ma‘lumotni uchratmadik. Shuningdek, hozirda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuaridan yozib olingan versiyalargina ma‘lum. Ammo biz dostonni faqat ikki baxshi kuylagan deb, xulosa qilmoqchi emasmiz. Fikrimizcha, doston boshqa baxshilar repertuarida ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, hujjatlashtirilmay qolib ketgan. Darhaqiqat, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li xotiralariga asoslanib, V.M. Jirmunskiy va H.Zarifovlarning qayd qilishlaricha²⁰, Bulung‘ur dostonchilik maktabining boshqa ijrochilari – Yo‘ldosh shoir va Suyar shoirlar ham “Zevarxon”ni kuylagan. Va har biri o‘ziga xos tarzda ijro etgan. Mazkur manba o‘z o‘rnida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining dostonni ustozlaridan eshitgani haqidagi ma‘lumotni ham shakllantiradi. Yo‘ldosh shoirning bir necha baxshilarga ustozlik qilgani esa dostonning yana boshqa baxshilar tomonidan ham kuylanganligi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Dostonning Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasiga oid ilk tadqiqot esa, doston qo‘lyozmasi so‘nggida baxshi tomonidan qoldirilgan qaydlardir. Eposning mazkur versiya²¹si 1947-yilda baxshining o‘z husnixatida Folklor arxiviga topshirilgan. Qo‘lyozmada doston matni bilan birga baxshining shaxsiy esdalik va izohlari ham keltirilishi ilmiy jamoatchilik uchun muhim ahamiyatga egadir. Mazkur mulohazalarda Rahmatulla Yusuf o‘g‘li “Zevarxon” va “Gul va Sanobar”ni bir syujetning boshqa-boshqa namunalari, deb qaraydi. Bu esa Qo‘rg‘on dostonchiligida “Gul va Sanobar” dostoni ham ijro etilganiga oid ma‘lumotni yuzaga chiqaradi.

“Zevarxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasi esa 1945-yilda M.Alaviya tomonidan yozib olinib, 1970-yilda M.Murodov so‘zboshisi bilan nashr qilingan. M.Murodov dostonning asosiy mazmunini “chin sevgiga hech qanday kuch to‘siq bo‘lolmaydi”, degan g‘oya tashkil etishini bayon qiladi. Olim Malikai Xubon obraziga alohida e‘tibor qaratadi. Jumladan, “Malika sevgilisi Zevarga yetishish uchun qanchalik harakat qilmasin, hammasi behuda ketadi... Shunday qilib, xalq Malikai Xubon obrazida adolatli, saxovatli ideal shoh haqidagi orzu-umidlarini tarannum etgan. Doston xotimasida qator qiyinchiliklarni mardona yengib, Zevarxonga yetishuvini tasvirlovchi epizodlarni o‘qiganingizda nihoyatda hayajonlanasiz”²², – deydi. Mazkur tahlilni o‘qiganingizda, dostondagi bosh obraz Malikai Xubon hamda u Zevarxonga yetishish uchun sinovlarni yengib

¹⁹ Murodov M. Достон ҳақида / Зевархон. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 3.

²⁰ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – Б. 42.

²¹ ZO‘FA, Inv.№ 1445.

²² Murodov M. Достон ҳақида / Зевархон. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 6.

o'tadiganday taassurot qoldiradi. Bizningcha, Malikai Xubon obrazi tavsifi biroz bo'rttirilgan. Dostondagi ayol obrazidagi faollik epik qahramon faoliyatini passivlashtirib, doston poetikasiga zarar yetkazgan, nazarimizda.

“Zevarxon” dostonini maxsus o'rganishga qaratilgan asosiy ish esa R.Rajabovga oid. Uning “Zevarxon” dostonining genezisi, tarqalishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida doston genezisiga oid mulohazalar bayon qilinadi, syujet va motivlar tizimi tahlil qilinib, Fozil shoir va Rahmatulla baxshi versiyalari qiyoslanadi. Jumladan, muallif “Zevarxon” dostoni syujeti “Kitobi Sanobar” asosida shakllangan, “Sanobar” esa forsiy “Gul va Sanobar”ning tarjimasi²³, degan xulosaga keladi. Biz esa mazkur tadqiqotda “Gul Sanobarga nima qildi?” nomli fors afsonasi bilan “Sanobar” xalq kitobi o'rtasidagi o'xshashlikni faqat ayrim motiv va syujet detallarida (Semurg', kiyikka evrilish, Gul va Sanobar ismlari) namoyon bo'lishini aniqladik. Hamda manbalar bo'yicha olib borilgan tahlillar natijalari asosida “Sanobar” xalq kitobi “Gul Sanobarga nima qildi?” fors afsonasining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi emas, va “Zevarxon” dostoni “Kitobi Sanobar”ning og'zaki varianti emas, balki mustaqil ishqiy-sarguzashtik doston ekanligini asosladik.

Shahzoda Sanobar sarguzashtlariga asoslangan syujet Xorazmda “Gul va Sanobar” dostoni; XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkent, Qozon, Samarqand, Buxoro va Kogonda litografik nashrlar orqali xalq kitobi shaklida ommalashgan. Shuningdek, Shaydoyiga nisbat berilgan “Gul – Senuber” nomli doston va unga oid bir nechta tadqiqotlar ham mavjud. Umuman, mazkur syujetga asoslanuvchi manbalarga oid tadqiqotlar forsiy, turkiy va yevropa adabiy an'analari kesishmasida shakllanib, uni xalqaro folklor hodisasi sifatida o'rganishga zamin yaratadi. Jumladan, N.P. Ostroumovning ruscha tarjimasi, V.M. Jirmunskiy va H.Zarifovlarning “Shahzoda Sanobar” syujeti va “Ming bir kecha” ertaklari qiyosiy tahlili, shuningdek, M.Jo'rayeva, D.Oqdirov, A.Meredov, N.Eren, H.I. Shahin va N.Köse tadqiqotlari ushbu syujetning turli madaniy muhitlarda (fors, o'zbek, turkman, uyg'ur)gi qayta talqinini ilmiy asosda yoritadi.

“Zevarxon” dostoni va doston syujeti manbalariga oid tadqiqotlar tahlili natijasida xulosa qilsak, “Zevarxon” dostoni – sayyor syujetlar, ertak elementlari sintezi va epik an'analar asosida Bulung'ur va Qo'rg'on dostonchilik maktablari tajribasiga tayanib shakllangan hamda o'zbek, fors, turkman adabiy muhitlarini bog'lovchi madaniy ko'priq vazifasini bajaradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Doston syujetining tarixiy asoslari*” deb nomlangan. Bunda “Zevarxon” dostoni syujetining shakllanish manbalari va genezisi haqida mulohaza yuritilgan.

“Zevarxon” dostonining badiiy struktura va kompozitsion xususiyatlariga doir turli ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, uning tarixiy ildizlariga oid mulohazalar, asosan, R.Rajabov tadqiqoti bilan bog'liq. Olimning qayd qilishicha, “Gul va Sanobar” fors xalq romani o'zbeklar o'rtasida tarqalib, keyinchalik xalq kitobiga aylanib ketdi... shu tariqa o'zbeklar o'rtasida “Kitobi Sanobar”, “Qissai

²³ Раджабов Р. “Зевархон” дostonининг генезиси, тарқалиши ва ғоявий-бadiий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973. – Б. 183-184.

Sanobar”, “Shohzoda Sanobar”, “Shohzoda Sanobarning sarguzashtlari” kabi milliy koloritli xalq kitobi vujudga keldi... Shu ta’sirlar (“Sanobar”ning xalq kitobi sifatida tarqalishi nazarda tutilgan) o’laroq, o’zbek folklorida “Sanobarjon”, “Zevarxon” dostonlari ijod qilindi”²⁴. Biz mazkur tadqiqotda R.Rajabovning yuqoridagi mulohazalariga munosabatimizni va “Zevarxon” dostonining manbalari, genezisiga oid xulosalarimizni “Gul Sanuvbarga nima qildi?” fors rivoyati, “Kitobi Sanobar”ning qo’lyozma va nashrlari, hamda “Zevarxon” dostoni versiyalarini o’zaro qiyosiy tahlil qilgan holda bayon qildik.

“Zevarxon” dostonining hozirda ikki – Fozil Yo’ldosh o’g’li va Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyalari mavjud. Mazkur ikki versiya poetik strukturasi, baxshi uslubi, obrazlar tizimi bilan o’zaro farqlanadi. Dostonning Fozil Yo’ldosh o’g’li versiyasi jonli ijrodan yozib olingan yagona namuna ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur versiyaning baxshi repertuarida shakllanish jarayoni ustoz-shogird an’analari bilan bog’liq bo’lsa-da, boshqa namunalarning yozib olinmaganligi manbalar bilan bog’liq ma’lumotlarni cheklaydi. Ustoz-shogird an’analarning ta’sirini esa V.M. Jirmunskiy va H.Zarifovlarning Fozil shoir xotiralariga asoslanib, “Zevarxon” dostonini ustozlari Suyar shoir “suluv qilib”, Yo’ldosh shoir “botir qilib” aytgani²⁵ haqidagi qaydlari asoslaydi. Afsuski, mazkur baxshilar variantlari ham yozib olinmagan. Shunday bo’lsa-da, Fozil shoir versiyasida Molikshoh qo’shini bilan jang epizodidagi Hasanxonning yakka kurashlari tasvirlangan o’rinda Yo’ldosh shoirning “Zevarxon”ni “botir qilib aytgani”ning ta’siri yaqqol aks etgan.

Dostonning har ikki versiyasida ham ertakka xos epizodlar keng o’rin egallagan. Xususan, Fozil Yo’ldosh o’g’li versiyasida qahramonning sinovlari Mastoni Zangi bog’i, Semurg’ obrazi hamda maymunlar mamlakati, kechasi itga evriluvchi odamlar shahri, farishtalar chorbog’i bilan bog’liq holda kechadi. Dostondagi Malikai Xubonning boshiga “davlat qushi” qo’nib, Istanbul shahrini boshqarishi hamda erkak qiyofasida adolatli podsho obrazini tamsil qilishi bilan bog’liq epizodlar manbasi “Ozodachehra”, “Malikayi Husnobod”, “Tuhmatga uchragan kelin”, “Qorasochxon” kabi ertaklar²⁶ bilan uzviy bog’liq. Xususan, uning aql va hiyla vositasida qaroqchilar qo’lidan qutilishi bilan bog’liq epizod manbasi “Qorasochxon” ertagiga borib taqaladi. Dostondagi maymunlar mamlakati, kechasi itga evriluvchi odamlar shahri bilan bog’liq sinov motivi epizodlari esa sayyor syujetlar bilan bog’liq bo’lib, o’zbek xalq ertaklari uchun xos emas. Tahlillarimiz ularning manbasini “Ming bir kecha” to’plamidagi “Sayfulmuluk”²⁷ qissasi va Flippin folkloriga oidligini ko’rsatdi. Mastoni Zangi bog’i, Semurg’ obrazi bilan bog’liq epizodlar esa “Sanobar” dostoni ta’sirida shakllangan bo’lishi, ehtimol. Binobarin, Sanobar ham safar davomida barzangi bog’iga duch keladi hamda Semurg’ yordamidagina parilar makoniga yetadi.

²⁴ O’sha manba, 183-184-betlar..

²⁵ Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – Б. 42.

²⁶ Malikai Husnobod / O’zbek xalq ertaklari. III jildlik, I jild. – Toshkent, 2007. – B. 217; Tuhmatga uchragan kelin / Oйжамол. Нашрга тайёрловчилар: Афзалов М., Хусайнова З., Собуров Н. – Тошкент, 1969. – Б. 100-109; Қорасочхон / Ўзбек халқ эртақлари. – Тошкент, 1969. – Б. 37-48.

²⁷ Сайфулмулук қиссаси / Минг бир кеча. 7-том. – Тошкент, 1963. – Б. 175 - 176.

Ammo Fozil shoir versiyasida mazkur epizodlar poetik ifodasi bilan keskin farqlanadi. Xulosa qilsak, “Zevaxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuariga oid versiyasi – o‘zbek xalq og‘zaki ijodida epos va ertak elementlarini mohirona sintez qilgan o‘ziga xos epik namuna sifatida ajralib turadi.

Dostonning Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasi esa “Kitobi Sanobar”ga yaqinligi bilan diqqatga sazovor. Binobarin, dostonning shakllanish jarayoniga nazar tashlasak, bu holatning tabiiyligini ko‘ramiz. Folklorshunos R.Rajabov²⁸ ta’kidlashicha, Rahmatulla baxshi dostonni ustozlari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir hamda Mulla O‘tap hofizlardan eshitgan parchalar, shuningdek, “Sanobar” nashridan foydalanib, shakllantirgan. Mazkur versiya, asosan, “Sanobar” xalq kitobi ta’sirida shakllantirilgan bo‘lsa-da, Sanobar obraziga bog‘liq syujet chizig‘i, “xat almashish” voqealari bilan xalq kitobidan farqlanadi. Dostonning bosh qahramoni Zevaxon ekanligi, doston shu nom bilan qayd qilinishiga qaramay, epik qahramonning sinov epizodlari “Kitobi Sanobar” bilan o‘xshash bo‘lgani sababidan “Kitobi Sanobar” va “Zevaxon” o‘zaro versiyalar sifatida qaralishiga sabab bo‘lgan, nazarimizda. Folklorshunos R.Rajabov ham “Sanobar” kitobini, asosan, mazkur versiya bilan qiyoslagani uchun uni “Zevaxon”ning manbasi sifatida qayd qiladi.

Dostonning Rahmatulla baxshi versiyasi kompozitsiyasi va motivlariga ko‘ra “Kitobi Sanobar” bilan muayyan yaqinliklarga ega. Jumladan, ilk uchrashuvning tushda yuz berishi, daryo halokati, barzangilar, bir dona gavhar tishlagan ho‘kiz, ro‘dapolar bilan bog‘liq sinov motivi epizodlari har ikki matnda markaziy o‘rinda turadi. Biroq, ayrim voqea tafsilotlari, obrazlar va lokal toponimlar o‘ziga xos tarzda talqin qilingan.

R.Rajabov “Sanobar” xalq kitobining manbasi sifatida ko‘rsatgan “Gul Sanuvbarga nima qildi?” fors qissasi esa, avvalambor, axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, syujet jumboqni topish asosiga qurilgan. Mazkur afsona “Kitobi Sanobar” bilan qahramonlarning ismlari (Gul va Sanobar), Semurg‘ obrazi, sehr bilan kiyikka evrilish motivi mavjudligi orqali o‘xshashlikka ega. Ammo g‘oya, kompozitsiya, struktura, obrazlar tabiati bilan jiddiy farqlanadi. Shu sababdan biz manbalar qiyosiy tahliliga asoslanib, “Kitobi Sanobar”ni “Gul Sanuvbarga nima qildi?” afsonasining lokal varianti emas, balki o‘zbek xalq dostonchilik an‘analari asosida shakllangan “Sanobar” eposining xalq kitobiga aylangan varianti sifatida baholadik:

– “Kitobi Sanobar” o‘zbek xalq dostonchiligiga xos epik sarguzasht, sinovga asoslangan safar va harakat davomiyligi bilan ajralib turadi. Forsiy rivoyatda esa syujet ixcham, “jumboq” markazga chiqqan va asosan, axloqiy tarbiya berish maqsad qilingan;

– forsiy afsonada mavjud bo‘lmagan tush, daryo halokati, og‘zida gavhar olib yurgan ho‘kiz, ro‘dapolar kabi motiv va obrazlar “Kitobi Sanobar”da syujetning asosini tashkil qilib, uni harakatlantirgan;

²⁸ Раджабов Р. Генезис, бытование и идейно-художественные особенности дастана «Зевархон»: Автореф. ...дисс. канд. наук. – Тошкент, 1973. – Б. 9.

– obrazlar tabiati ham farqli: forsiy afsonadagi Sa’d, Gul, Sanuvbar obrazlari ramziy-axloqiy yuklamaga ega bo’lsa, “Kitobi Sanobar”dagi Sanobar va Gulparizod esa syujet mazkazida faol harakatlanib, o’zida sevgi, kurash, sabr, sadoqat, vafo kabi tushunchalarni mujassamlashgan;

– forsiy afsonada syujetning markazida jumboqqa javob topish turadi. “Kitobi Sanobar”da esa jismonan yetuk epik qahramonning ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo’lidagi safari asosiy harakat chizig’ini tashkil qiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, “Kitobi Sanobar”ni “Gul Sanuvbarga nima qildi?” fors afsonasining tarjimasi yoki soddalashtirilgan shakli sifatida emas, balki o’zbek xalq eposi an’analari asosida shakllangan mustaqil doston sifatida baholadik. Eron manbalarida “Gul va Sanobar”, “Gul va Sarv”, “Gul Sanobarga nima qildi?” “Gul va Sanobar haqida qissa” kabi nomlar bilan²⁹ qayd qilinuvchi afsona o’zbek xalq og’zaki ijodida kompozitsiya va syujetni saqlagan holda “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?” nomli ertak shaklida lokallashgan. Ertakda uch o’g’illi podshoh, taqiqlangan makon, borsa-kelmas yo’l, pari qiziga oshiqlik, shart va sinov kabilar lokal an’analarga mos tarzda qayta modellashtirilgan. Forsiy rivoyatda fojiviy yakun ustun bo’lsa, ertak an’anaga muvofiq baxtli yakunga ega.

Xulosa qilsak, “Zevarxon” dostoni “Sanobar” xalq kitobining yoki forsiy afsonaning bir versiyasi emas, xalq dostonchiligi an’analari va ertak elementlarini uyg’unlashtirgan ishqiy-sarguzashtik dostonidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Doston versiyalari va uning qiyosiy tadqiqi”** bo’lib, 1-fasli *“Zevarxon” dostonining Fozil Yo’ldosh o’g’li va Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyalari qiyosiy tahlili* deb nomlangan. Unda “Zevarxon” dostonining obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi, poetik vositalari, syujet va motivlari ikki versiya asosida qiyosiy tahlil qilingan.

“Zevarxon” dostonining ikki versiyasi – Fozil Yo’ldosh o’g’li va Rahmatulla Yusuf o’g’li repertuariga mansub namunalar epik qahramon atrofida kechadigan sarguzashtlarni tasvirlasa-da, kompozitsiya, obrazlar tizimi va badiiy ifoda jihatidan sezilarli farqlarga ega. Bu farqlar baxshilarning individual uslubi, epik bilimi va estetik qarashlari bilan bog’liq bo’lib, ularni bir dostonning mustaqil ijodiy versiyalari sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Akademik T.Mirzayevning “variant” va “versiya” haqidagi ta’rifiga ko’ra, “kompozitsion va g’oyaviy-badiiy tasvir vositalari jihatidan prinsipial farq qiluvchi asarlar versiya sanaladi”³⁰. Biz yuqoridagi mezonlarga tayangan holda, mazkur namunalarning kompozitsion, g’oyaviy-badiiy tasvir vositalarini qiyosladik. Hamda bu namunalarni versiya sifatida qaradik.

Har ikkala versiyasi ham an’anaviy uch bosqichli epik model (uchrashuv, hijron, visol)ga tayansa-da, ayriliq va qayta visol bosqichlari bilan kengaytirilgan. Fozil Yo’ldosh o’g’li versiyasida ishqiy-lirik ruh ustun bo’lib, qahramonning ichki kechinmalari lirik monologlar bilan izchil yoritiladi. Masalan, bosh

²⁹ https://fa.wikipedia.org/wiki/صنوبر_و_گل

³⁰ Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 28-29.

qahramonlarning ilk muloqoti ham Malikai Xubon tomonidan o‘qilgan g‘azal orqali ifodalanib, unda ishq “hayot manbai” sifatida talqin qilinadi:

Suvsiz qolding jonim begim,
Beray suv, davron senga!
Qiyomatli sen sevganim,
Fido bo‘lsin bu jon senga!³¹

Mazkur lirik parchada epizoddagi muhabbat izhori suv – hayot – ishq semantik bog‘lanishi bilan ifodalanishi e‘tiborga loyiq. Suvning hayot ramzi sifatida berilishi bilan muhabbatning ruhiy ehtiyoj ekanligi ifodalanadi. Hamda sevgi tashqi husn tasviridan ichki mayl, ruhiy uyg‘onish holatiga ko‘chadi.

Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasida qahramonning daryo halokati, barzangi, ro‘dapo, gavhar tishlagan ho‘kiz bilan bog‘liq sinovlari orqali syujet harakatlanadi. Masalan, barzangi bilan bog‘liq sinovda tashqi xavf tasviri hajm, qiyofa va kuchning haddan ortiq kattalashtirilgan badiiy ifodasi bilan berilgan: “har murti shopday, og‘zi eski qopday, qulog‘i supraday, ikki burni ikkita to‘laday; qo‘llari shoxi chinor, bo‘yi xuddi bir minor”³². Mazkur xavfga Zevarxonning munosabati ham “tezlikda bir tokning ostiga bekinib oldi” kabi tadbirli qaror bilan namoyon bo‘ladi. Epizod davomida xavfdan qutulgan Zevarxonning qarg‘alardan yoriga salom yo‘llashi esa yo‘lning davomiyligini ifodalashga xizmat qiladi.

“Zevarxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasida esa qahramonning zangilarga duch kelishi uning dastlabki sinovi sanaladi. Ushbu epizodda tashqi harakatdan ko‘ra qahramonning ichki iztiroblari, o‘zini anglashi va pushaymonlik kayfiyati tasvirlanadi. Xususan, “Xazon qildi bog‘i umrim gulshani... Manmanlikda endi bo‘ldim pushaymon”³³ misralarida “hazon-gulshan”, “manmanlik-pushaymon” kabi so‘zlar juftligi Zevarxonning ichki o‘zgarish bosqichini badiiy ifodalaydi.

Dostonning Fozil shoir versiyasida syujetdagi keyingi sinov, motiv, epizodlarda ham qahramonning ruhiy holati yetakchi poetik mezonga aylanadi. Zevarxon bosh qahramon sifatida ichki ziddiyatlarga boy, xatolarini anglab saboq oluvchi, ruhiy kechinmalar orqali yetiluvchi obraz sifatida shakllanadi. Jumladan, farishtalar chorbog‘i va odamlari kechasi itga evriluvchi shahar voqealari qahramonning nafs, sabr, iroda bilan bog‘liq sinovini ifodalaydi. Hamda dostonning mohiyatini falsafiy mazmunga kengaytiradi. Biroq, Malikai Xubon syujet markaziga chiqarilishi va uning faol personajga aylantirilishi, nazarimizda, badiiyat va kompozitsiya muvozanatiga biroz putur yetkazgan. U doston boshlanmasida qalandar bergan xosiyatli tuya yordamida yetti marotaba Ka‘ba borib keladigan, Zevarxonni oshiq qilib, g‘oyib bo‘ladigan ko‘makchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi epizodlarda esa siyosiy faol qahramonga aylantiriladi. Bu esa obrazni reallashtirib yuborgan.

³¹ Zevarxon. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh ўғли. Nashrga tayёрlovchi: Murodov M. – Toshkent, 1970. – B. 8.

³² Zevarxon / Toxir va Zuxra. Ўзбек халқ ижоди. Aytuvchi: Raхmatulla Юсуф ўғли. Nashrga tayёрlovchi: Saидов M. – Toshkent, 1974. – B. 93.

³³ Zevarxon / Баҳром ва Гуландом. Ўзбек халқ ижоди. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh ўғли. Nashrga tayёрlovchi: Murodov M. – Toshkent, 1986. – B. 170.

Dostonning Rahmatulla baxshi versiyasida Zevarxon sarguzashtlarni boshdan kechiruvchi, sinovlarni jasorat va tadbirliligi bilan yenguvchi qahramon sifatida talqin qilinadi. Uning sinovlari Jayhun baliq, barzangi, og‘zida gavhar tishlagan ho‘kiz, ro‘dapo kabilar orqali ifodalanadi.

Xulosa qilsak, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasi badiiy mahorat, lirik ifoda va poetik izchillik jihatdan, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasi esa voqeaviylik va dramatik ifoda jihatidan yetukligi bilan ajralib turadi. Har ikkala versiya o‘zbek xalq eposining variantlilik hodisasini boyitgan, baxshining individual mahorati, epik bilimi va poetik uslubini yaqqol ifodalagan badiiy namunalar hisoblanadi.

Ikkinchi bobning *“Doston syujetining o‘zbek, turkman va uyg‘ur versiyalari”* nomli ikkinchi faslida *“Zevarxon”* dostoni bilan o‘xshash syujetli namunalar, xususan, *“Gul va Sanobar”* dostonining uch versiyasi tahlil qilingan. Bular – Roziya xalfa repertuariga oid o‘zbek, Shaydoyiga nisbat beriluvchi turkman va uyg‘ur versiyalaridir.

Xorazmda *“Gul va Sanobar”* nomi bilan mashhur bo‘lgan doston xalfalar repertuarida og‘zaki saqlanib qolgan bo‘lsa-da, baxshilar tomonidan ijro qilinmagan. Biz tahlilga tortgan 1906-yilda Roziya xalfadan yozib olingan qo‘lyozma asosida tayyorlangan versiya tasviriy vositalarning soddaligi va aniq bayoni bilan ajralib turadi. Turkman adabiy muhitiga oid *“Gul – Senuber”* nomli versiya shoir Shaydoyiga nisbat berilgan holda bir necha bor nashr etilgan. Uyg‘ur xalq og‘zaki ijodida esa mazkur syujetli doston *“Senuber”* deb nomlangan. U 2004-yili turk tilida chop etilgan bo‘lib, tahlil uchun mazkur nashrdan foydalandik.

Dostonning barcha versiyalari syujet qurilishi jihatidan umumiy: shahzoda tushida pari qizga oshiq bo‘ladi va ishqiy-sarguzashtik safarga otlanadi. Syujetdagi tush motivi, daryoni kechish va halokat, sehr bilan kiyikka evrilish, barzangi va ro‘dapo bilan to‘qnashuv, og‘zida gavhar tashigan ho‘kiz, Semurg‘ obrazi kabilar qahramonning ruhan va jismonan kamol topishiga xizmat qiladi. Biroq ushbu mushtarak syujet doirasida har bir lokal versiya o‘ziga xos badiiy uslub va talqini bilan ajralib turadi.

Xorazm adabiy muhitiga mansub *“Gul va Sanobar”* dostonining o‘zbek versiyasi qissaxonlikka tayangan namunadir. Dostonning obrazlar tizimi an’anaviy: podsho Xurshid, shahzoda Sanobar, Gul – pari, do‘st – Zevarshoh. Doston syujeti safar va sinov motivlari asosiga qurilgan. Syujetni harakatga keltiruvchi esa tush motivi bo‘lib, birinchi tush Sanobarda ishq otashini uyg‘otib, safar motivini ergashtirib keladi. Ikkinchi tush esa chiltonlar va qirq qalandarning *“vahdat mayi”* tutishi orqali qahramonning ruhiy kamolotini ifodalaydi. Epizodlar orasida ro‘dapo bilan to‘qnashuv Sanobarning passiv holatdan faol qahramonga aylanish bosqichini aks ettiradi. Shuningdek, dostonda Semurg‘ning yordami sababi rahm-shafqatga bog‘lanib, parvoz tafsiloti ixcham berilishi mantiqiy izchillikka putur yetkazgan. Ammo bunday tasvir o‘z o‘rnida ruhiy-axloqiy mazmunning birlamchi ekanligini ham ko‘rsatadi. Poetik til esa xalqona bo‘lib, *“xinoli qo‘llar”*, *“zafaron zulf”* epitetlar dostonning estetik tabiatini yaqqol namoyon etadi. Umuman, mazkur versiya syujetning izchil qurilishi, motivlar

tizimi, semantik va poetik qatlam uyg'unligi bilan dostonning g'oyaviy-poetik qiyofasini to'laqonli ko'rsatib bergan eng mukammal talqinidir.

